

«QUMSOAT» SMS-VIKTORINASINI O'TKAZISH QOIDALARI

SIZDAN MAZKUR QOIDALAR BILAN BATAFSIL TANISHISHNI ILTIMOS QILAMIZ!

Ishtirokchisi o'zining intellektual qobiliyati tufayli savollarga to'g'ri javoblarni berish yo'li bilan g'olib chiqish va qimmatbaho sovrinni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan tanlov **VIKTORINA TAMOYILI** hisoblanadi. Viktorina O'zbekiston Respublikasi hududida abonentlik shartnomasini tuzgan BEELINE, UZMOBILE mobil operatorlarining Abonentlari orasida o'tkaziladi.

VIKTORINA MAQSADI – yosh avlodga mutolaaga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, uning bilish faolligini oshirishdan iborat.

VIKTORINA VAZIFALARI – yoshlarning intellektual tadbirlarda qatnashish yo'li bilan yangi bilimlarga ega bo'lishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish.

Viktorina shartlariga ko'ra Ishtirokchiga ikkita javob variantiga ega savol taklif etiladi, u shu javoblar orasidan bitta to'g'ri variantni tanlashi kerak. Har bir to'g'ri/noto'g'ri javob uchun Ishtirokchi ballar oladi. Kun yakuniga ko'ra javoblarga sarflangan vaqt bo'yicha hammadan oldin eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi Viktorina G'olibi sifatida tan olinadi.

Viktorina G'olibini aniqlash:

- joriy Kun yakunlari bo'yicha (soat 00:00:00 dan 23:59:59 – joriy kun yakunlangunicha)

Yetakchilar ro'yxati Tashkilotchining <https://t.me/qumsoat> rasmiy Telegram kanalida beriladi.

Ta'riflar va ularning tavsifi.

Kontent – SMS-xabarlarda olinadigan savol va javob variantlari.

Abonentlik qurilmasi –matnli xabarlarni yaratish va jo'natish imkonini beradigan ko'chma (mobil, uyali) aloqa tarmog'iga ulanadigan foydalanuvchilik (yakuniy) uskunasi (mobil telefon, smartfon, kommunikator, SHCHK va boshqalar).

SMS-xabar –Abonentlik qurilmasi yordamida jo'natiladigan va qabul qilinadigan matnli xabar.

Abonent – Operator, kamida bitta Abonentlik raqami va/yoki Unikal identifikatsiya kodini ajratgan holda, aloqa xizmatlarini taqdim etishga shartnoma tuzgan Jismoniy shaxs.

Foydalanuvchi (Ishtirokchi) – Tashkilotchining Kontentini oladigan va undan foydalanadigan hamda Tashkilotchi tomonidan mobil operatorlar bazasining Abonentlik raqamiga muvofiq identifikatsiya qilinadigan jismoniy shaxs.

Operator – Abonent bilan shartnoma bo'yicha tomon hisoblangan, litsenziyalar asosida aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya.

Tashkilotchi – «PRIME MEDIA SOLUTION» Mas'uliyati cheklangan jamiyati.

1. Umumiy qoidalar.

1.1. Viktorina nomi: **"QUMSOAT"** (quyida – "Viktorina").

1.2. Viktorina rag'batlantiruvchi lotereya yoki qimor o'yini hisoblanmaydi, unda qatnashish tavakkalga asoslanmagan.

1.3. Iste'molchilar huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadlarida Viktorina O'zbekiston Respublikasining reklama va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining barcha normalari va qoidalariga qat'iy amal qilgan holda o'tkaziladi.

1.4. Viktorina "qaynoq" liniyasi – 71 200-6003, qumsoat@finmedia.uz. Ish soatlari: ish kunlarida soat 12:00 dan 19:00 gacha (shanba va yakshanba kunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat bayramlari bundan mustasno).

1.5. Viktorina sovrinlari:

Pul sovrini – mobil hisobga, G'olib Kontentga obunani faollashtirgan SIM-karta raqamiga o'tkaziladi.

- 1-o'rin – 50 000 so'm
- 2-o'rin – 40 000 so'm
- 3-o'rin – 30 000 so'm
- 4-o'rin – 20 000 so'm
- 5-o'rin – 10 000 so'm

1.6. Viktorina o'tkaziladigan davr – 2019-yil 27 maydan 2019-yil 31-dekabrgacha.

2. Qatnashish shartlari.

2.1. Kontentga obunani rasmiylashtirgan va Viktorinada ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchilar Viktorina Ishtirokchilariga aylanadilar.

Obunani faqat bir kunda bir marta rasmiylashtirish mumkin.

2.2. Foydalanuvchilar obunani **quyidagi tarzda rasmiylashtirishlari** mumkin:

Shaxsiy Abonentlik qurilmasidan **GO** matni (o'zbek tilida savol olish uchun) yozilgan SMS-xabarni **8185** qisqa raqamiga jo'natish.

Abonentlar uchun obuna qiymati – **kuniga 842 so'mni** tashkil qiladi. Obuna avtomat tarzda har bir keyingi kunga uzaytiriladi.

Obuna qiymatiga kiruvchi savollar soni cheklangan. Ishtirokchi **kuniga 50 ta savol** olishi mumkin.

Ishtirokchi joriy kun davomida javob berolmagan savollar keyingi kunga o'tmaydi va yig'ilib qolmaydi.

Foydalanuvchi dastlabki so'rovga javob sifatida, ro'yxatdan o'tish tasdiqlanganligi haqida **08185** qisqa raqamidan SMS-xabar oladi. **08185** qisqa raqamidan olingan SMS-xabarlar tarifkatsiyalanadi.

Savol olish uchun **8185** qisqa raqamiga **GO** matni yozilgan SMS-xabarni takror jo'natish kerak. Bunga javoban Abonent Viktorina savolini va ikkita javob variantini o'z ichiga olgan SMS-xabarni oladi.

Har bir savolga javob, taklif etilgan variantlardan to'g'risi sifatida Foydalanuvchi tomonidan tanlangan Javobning tartib raqamini bildiradigan **A** yoki **B** matni ko'rinishidagi SMS-xabar, Ishtirokchi tomonidan **8185** qisqa raqamiga yuborilishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Viktorina savoliga javobni o'z ichiga olgan har bir SMS-xabarga javoban Foydalanuvchi ikkita SMS-xabar oladi:

- Ishtirokchining javobi to'g'ri yoki noto'g'ri ekani hamda uning reytingdagi o'rni va to'plagan ballarining soni haqidagi ma'lumotlar yozilgan xabar;
- Viktorinaning keyingi savoli va ikkita javob variantini o'z ichiga olgan xabar.

O'tgan kun Reyting olish uchun 8185 qisqa raqamiga **RTG** matni yozilgan SMS-xabarni takror jo'natish kerak.

2.3. Foydalanuvchilar obunani **quyidagi tarzda bekor qilishlari** mumkin:

Shaxsiy abonentlik qurilmasidan **8185** qisqa raqamiga **1** yoki **STOP** matni yozilgan SMS-xabarni yuborish.

Bunda qolgan savollar kuyib ketadi, joriy kun davomida to'plangan ballar esa joriy kun g'oliblari aniqlanguniga qadar saqlanib turadi.

2.4. Viktorina savollarini o'z ichiga olgan SMS-xabarlar hamda Foydalanuvchilarga Viktorina doirasida 8185 qisqa raqamidan yuboriladigan axborot xabarlarini Foydalanuvchilar uchun bepul hisoblanadi.

2.5. Viktorinada 18 yoshga to'lgan (voyaga yetgan) barcha ishga layoqatli shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy ro'yxatda turuvchi va istiqomat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari qatnashishi mumkin.

2.6. Viktorinada Tashkilotchining xodimlari va vakillari, ular bilan affillangan shaxslar, shunday xodimlar va vakillarning oila a'zolari hamda Viktorinani tashkillashtirish va/yoki o'tkazishga aloqador boshqa har qanday yuridik shaxslarning xodimlari va vakillari, ularning oila a'zolari qatnashishi taqiqlanadi.

- 2.7. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el fuqarolari, yuridik shaxslar, norezidentlar, ikkita fuqaroligi bor shaxslar, yuridik shaxslarning delegatlari Viktorina ishtirokchilari bo'la olmaydi.
- 2.8. Bolalar yoki 18 yoshdan kichik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan Viktorina qisqa raqamlariga ruxsat etilmagan qo'ng'iroqlar va SMS-xabarlar uchun ularning ota-onalari yoki vasiylari javobgar bo'ladi.
- 2.9. Har bir Foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan savollar va Viktorina Qoidalari haqida ma'lumotnoma olish hamda info@finmedia.uz elektron manzili bo'yicha malakali javoblarga ega bo'lish imkoniyatiga ega.

3. Javoblarga ishlov berish, ballarni yozish va hisoblash protsedurasi.

- 3.1. Har bir to'g'ri javob uchun Ishtirokchi 10 ball oladi. Har bir noto'g'ri javob uchun Ishtirokchi 2 ball oladi.
- 3.2. Agar Ishtirokchi oxirgi savolni olgan joriy kun yakunlanganidan keyin (soat 23:59:59 da) Viktorinada qatnashishni davom ettirishga qaror qilsa va oxirgi olingan savolga to'g'ri javobni yuborsa, unda savolga to'g'ri javob uchun savolga javob yo'llangan kuni ballar yoziladi. Bu ballar savolga to'g'ri javob yuborilgan kun yakunlari bo'yicha ballar yig'indisini hisoblashda inobatga olinadi, biroq savol olingan kun yakunlari bo'yicha ballar hisoblanganda inobatga olinmaydi.
- 3.3. Agar Ishtirokchi 30 kun davomida faol bo'lmasa, unda ushbu Ishtirokchiga oxirgi savol yuborilgan paytdan boshlab 30 kundan so'ng unga SMS-xabar jo'natiladi va shu daqiqadan boshlab u Viktorinada qatnashishdan voz kechgan Ishtirokchiga aylanadi.
- 3.4. Ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchilarning raqamlari ma'lumotlar bazasiga tushadi va ularga avtomat tarzda unikal identifikatsiya raqamlari (ID) beriladi. Ushbu raqamlar Viktorina ma'lumotlar bazasining maxsus Reyestriga kiritiladi. Viktorina faoliyat ko'rsatadigan butun davr davomida ballarning jamg'arib boriladigan tizimi amal qiladi: har kuni Ishtirokchilar tomonidan Viktorinada istalgan usulda qatnashish yo'li bilan to'plangan barcha ballar yagona ma'lumotlar bazasiga qo'shiladi.
- 3.5. Agar Ishtirokchi biror-bir vaqtda qatnashishni to'xtatsa, unda u ushbu Ishtirokchi qatnashmagan (javoblar yozilgan xabarlarni jo'natmagan) kunlar yakunlari bo'yicha kun Yetakchisi sifatida tan olinishi mumkin emas.
- 3.6. **Agar ikki va undan ortiq Ishtirokchi bir xil miqdorda ball to'plagan bo'lsa, ballarni birinchi bo'lib to'plagan Ishtirokchi g'olib deb tan olinadi.**
- 3.7. Viktorinani o'tkazish protsedurasining barcha shartlariga amal qilinishi uchun Tashkilotchilar orasidan 3 (uch) kishidan iborat Komissiya tuziladi.
Komissiyaning vazifasiga quyidagilar kiradi:
- Viktorinani mazkur Qoidalarda belgilangan tartibga muvofiq o'tkazish;
- Viktorinani o'tkazish natijasini tegishli hujjat (Bayonnoma)ni tuzish yo'li bilan tasdiqlash.
Komissiya Kotibi Viktorinani o'tkazish bayonnomasini yuritadi. Bayonnomada quyidagilar aks ettiriladi:
- Viktorinani o'tkazish vaqti va usullari;
- Viktorinani o'tkazish bo'yicha Komissiya tarkibi haqida ma'lumotlar;
- Viktorinani o'tkazish bo'yicha Komissiya harakatlari, ular real vaqtda bevosita qanday tartibda bajarilgan bo'lsa, shu tartibda;
- Viktorinani o'tkazish natijalari, qimmatbaho Sovrinni yutib olgan Foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda.
- 3.8. Agar Viktorina Ishtirokchisi G'olibga aylansa, sovrinni olish paytida shaxsni identifikatsiya qilish uchun u Tashkilotchiga telefon orqali barcha zarur axborotni ma'lum qilishi shart.

4. Sovrinlarni topshirish tartibi.

- 4.1. Sovrinlarni olish uchun Viktorina G'oliblari Tashkilotchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:
- 4.1.1. Pasport nusxasi (propiska qo'yilgan sahifasi bilan);
- 4.1.2. Soliq inspeksiyasidan olingan STIR nusxasi;
- 4.1.3. Propiska bo'yicha manzili.
- Ishtirokchining belgilangan qoidalar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlari qaytarilmaydi.

4.2. G'olib tomonidan mazkur qoidalar bajarilmagan va zarur hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, sovrinlar Tashkilotchida qoladi va Tashkilotchi sovrinlarni G'olibga topshirmaslik huquqiga ega bo'ladi.

4.3. Viktorina G'oliblari ushbu Viktorinada sovrin (sovrinlar) olinishi munosabati bilan yuzaga keladigan barcha soliq to'lovlarini to'lash, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan boshqa harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

Shu munosabat bilan Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, G'olibning soliq agenti sifatida harakat qilgan holda, jismoniy shaxslarning daromadidan daromad solig'i (JSHDDS) summasini amaldagi qonunchilikda belgilangan stavka bo'yicha hisoblaydi va G'olib nomidan byudjetga tegishli soliqni to'laydi. **Pul sovrini G'olibga byudjetga to'langan soliq (JSHDDS) summasini chiqarib tashlagan holda to'lanadi.**

Tashkilotchi G'olib va sovrin miqdori haqidagi ma'lumotni O'zbekiston Respublikasining soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi amaldagi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlariga taqdim etadi.

4.4. Tashkilotchining Viktorina g'oliblariga aylangan Ishtirokchilarga Viktorina Sovrinlarini berish bo'yicha majburiyati, Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar (mobil telefon raqami, telefon raqami egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shaxsiy hisob, STIR nusxasi) verifikatsiya qilinganidan keyin Ishtirokchi mobil raqamining shaxsiy hisobiga Viktorina bo'yicha pulli Sovrin summasi o'tkazilgan paytdan boshlab tegishli tarzda bajarilgan hisoblanadi.

4.5. Sovrinlarni topshirish muddati – Viktorina G'oliblari sovrinni olishga talabnoma qoldirishi mumkin bo'lgan muddat – 30 kun.

4.6. Pulli sovrin naqd pul mablag'lari ko'rinishida berilmaydi.

4.7. Agar G'olib sovrinlar beriladigan muddat tugagunicha Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Tashkilotchiga sovrinni berishni so'rab murojaat qilmasa, ushbu holat Ishtirokchining Viktorina Sovrinini olishdan voz kechishi hisoblanadi.

4.8. Agar Sovrinlarni berish muddati tugaganidan keyin taqsimlanmagan Sovrinlar qolgan bo'lsa, Tashkilotchi bunday Sovrinlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan har qanday usulda tasarruf qiladi.

4.9. Viktorinaning Sovrinlar fondi Viktorina Tashkilotchisi va Homiylarning mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

4.10. Viktorina Sovrinlarining sifati bo'yicha e'tirozlar bevosita ushbu sovrinlarni ishlab chiqaruvchilarga taqdim etilishi kerak. Sovrinlarning butligi va funktsional yaroqliligi Viktorina Ishtirokchilari tomonidan bevosita Viktorina Sovrinini olish paytida tekshirilishi zarur. Tashkilotchi Sovrin Viktorina G'olibiga berilganidan keyin yuzaga kelgan Viktorina Sovrinining har qanday shikastlanishi uchun javobgar bo'lmaydi.

4.11. Sovrinlarning modeli, rangi hamda boshqa parametrlari va xarakteristikalari Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra belgilanadi va ular Ishtirokchilarning umidlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Viktorina Sovrinlari o'z tashqi ko'rinishi bo'yicha televizion roliklar, reklama materiallari va Tashkilotchining saytida taqdim etilgan sovrinlar tasvirlaridan farq qilishi mumkin.

5. Fors-major holatlari

5.1. Tashkilotchi quyidagi holatlar uchun javobgar emas:

5.1.1. Tomonlar majburiyatini qabul qilishga imkon bermaydigan, tomonlar xohish-irodasi va xatti-harakatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, to'fon, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush, qamal, jamoat manfaatlari yo'lida amalga oshiriladigan import va eksportning taqiqlanishi) sabab sodir bo'lgan holatlarda.

5.1.2. Tomonlar xohishiga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarda (o'g'rilik, zoravonlik, ommaviy tartibsizlik va boshqalar; iqtisodiy faoliyatning tugatilishi va boshqa hollarda).

6. Viktorinani otkazish muddati

6.1. Tashkilotchi istalgan vaqtda Viktorinani to'xtatish yoki tugatish huquqiga ega. Tashkilotchi Viktorinaning to'xtatilishi yoki tugatilishi bilan bog'liq sabablar haqidagi ma'lumotlarni mumkin bo'lgan barcha yo'llar bilan taqdim tadi.

7. Maxsus tartib-qoidalar

7.1. Tashkilotchining ma'lumotlar bazasida Viktorina Ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan, biroq www.finmedia.uz saytida joylashtirilgan mazkur Qoidalaridan norozi bo'lgan Ishtirokchi istalgan vaqtda Viktorinada ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.

7.2. Tashkilotchining yozma talabiga ko'ra, Viktorina G'olibi Sovrinni olish bilan bog'liq barcha kutilgan va kutilmagan xarajatlarni, chunonchi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlarni, pul o'tkazmalari uchun bankning vositachilik haqi va boshqalarni to'lashni o'z zimmasiga oladi.

7.3. Viktorina G'oliblari ular G'olib deb e'lon qilinishi bilan o'z huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga berishga haqli emas.

7.4. Viktorinada ishtirok etish kontent Foydalanuvchilarining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqishi va to'la rozilik berishini nazarda tutadi.

7.5. Viktorina G'olibi deb topilgan Ishtirokchilar qo'shimcha roziliklarsiz Tashkilotchi va/yoki uning vakolatli vakiliga ismi, familiyasi, otasining ismi, rasmi, mobil telefon raqamlarini ommaviy ma'lum qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida Viktorinadagi ishtiroki haqida reklamali intervyu, shu jumladan, boshqa axborot tarqatuvchi vositalar qatori radio va televidenie uchun intervyu olish huquqini, foydalanish muddati, tarqatilish hududini cheklamagan holda va qo'shimcha mukofot to'lovlarisiz har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun foto va video tasvirga tushirish huquqini taqdim etadi. Bunda reklama tarqatuvchisiga reklama qilinayotgan shaxs reklamani to'xtatish talabi bilan yozma shaklda murojaat qilsa, murojaat olingan kundan boshlab, 10 bank kuni davomida reklama tarqatuvchisi reklama tarqatishni to'xtatishi shart.

7.6. Tashkilotchi har qanday sabab bo'lganda ham, mazkur Qoidalarda ko'rsatilgan me'yorlar bundan mustasno, Viktorina Ishtirokchilari bilan yozishmaslik yoki boshqa munosabatlarga kirishmaslik huquqini saqlab qoladi.

7.7. Tashkilotchi Viktorina Ishtirokchilari tomonidan mazkur Qoidalar bilan o'rnatilgan Sovrinni olish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni o'z vaqtida bermaganligi va ularning haqiqiy emasligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

7.8. G'olib bo'lgan Foydalanuvchilar tomonidan Viktorina Qoidalarining kechikib o'qib chiqilishi mazkur Qoidalarda yozilgan talablarni va Sovrinni olish uchun Tashkilotchiga kerakli ma'lumotlarni taqdim etish muddatini buzish uchun uzrli sabab hisoblanmaydi.

7.9. Viktorina Sovrinlarining egasi sovrinni unga teng miqdordagi pul ko'rinishida olmoqchi ekanligini bildirishi mumkin.

7.10. Agar Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan, shu jumladan, uzrli sabablarga ko'ra Viktorina Sovrinlari G'oliblar tomonidan so'ralmagan bo'lsa, oxirgilari Sovrinlarni berish muddati tugashi bo'yicha Sovrinlarni talab qilish huquqini yo'qotadi.

7.11. Tashkilotchi mazkur Qoidalar tartibini, shu jumladan, Sovrinni topshirish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni taqdim etish muddatini buzgan G'oliblarga, xuddi shu kabi ana shunday ma'lumotlarni taqdim etmagan Ishtirokchilarga Viktorina Sovrinlarini topshirishdan voz kechish huquqini saqlab qoladi.

7.12. Zarurat paydo bo'lganda, Tashkilotchi Viktorina Ishtirokchilaridan davlat organlariga taqdim etiladigan kerakli ma'lumotlarni talab qilish huquqiga ega.

7.13. Tashkilotchi telefon aloqasi, uyali operator ishlari, Internet tarmog'i bilan aloqa sifatiga, shuningdek, Internet-provayderlarning ish sifatiga va ularning Viktorina Ishtirokchilari uskunalari va dasturiy ta'minotlari bilan ishlashiga, qolaversa, Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa salbiy oqibatlariga ega shu kabi holatlar uchun javobgar emas.

7.14. Tashkilotchi mazkur Qoida bo'yicha o'zi buzmagani hech bir holat uchun, shu jumladan, Qoidalarga muvofiq bo'lgan SMS-xabarlarining ma'lum hududlarda ko'rsatilmagan xizmatlar va (yoki) tarmoqda olib borilgan profilaktik ishlar oqibatida yuborilmay qolishi yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

7.15. Agar Viktorinaning istalgan jihati qandaydir sabablar, shu jumladan, kompyuter viruslaridan zararlanish, mobil aloqa tarmog'idagi nosozliklar, nuqsonlar, ijazatsiz aralashuv, qalbakilashtirish, texnik nosozliklar yoki Viktorinani amalga oshirishga, uning xavfsizligiga, shaffofligiga, yaxlitligi yoki otkazilishiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday holat tufayli yuzaga keladigan sabablarga ko'ra rejalashtirgandek otkazilmaydigan bo'lsa, Tashkilotchi o'z ixtiyori bilan Viktorina otkazilishini tugatishi, o'zgartirishi yoki vaqtinchalik to'xtatishi mumkin.

7.16. Tashkilotchi Viktorina Foydalanuvchisi/Ishtirokchisi/G'olibi tomonidan yo'l qo'yilgan biror-bir xatolik oqibatlari, shu jumladan, (boshqa narsalar qatori) yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

7.17. Foydalanuvchilar tomonidan Viktorinada ishtirok etish Qoidalari bajarilgan paytda Tashkilotchi yoki vakolatli shaxslar foydalanuvchilarning Viktorinada ishtirok etish davomida taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini Viktorinani otkazish maqsadi uchun kerakli usulda, shu jumladan, belgilangan ma'lumotlarni Viktorina Sovrinlarini ularning egalari topshirishni tasdiqlash maqsadida foydalanish, shuningdek, mazkur Viktorinani otkazish bilan bog'liq maqsadlarda Ishtirokchilar bilan yakka tartibda muloqotni yuritish maqsadida qayta ishlash huquqiga ega. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari faqatgina mazkur Viktorina otkazilishi munosabati bilan Tashkilotchi tomonidan ishlatiladi va ushbu Viktorina maqsadlari bilan bog'liq bo'lmagan hech bir uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi. Ko'rsatilgan kelishuv Ishtirokchi tomonidan Tashkilotchi manziliga buyurtma pochta yubormasi orqali yo'llangan yozma bildirgi yo'li bilan istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin. Viktorinadagi ishtiroki davomida Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan barcha shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan Tashkilotchi yoki uning vakolatli shaxslari tomonidan ularning daxlsizlik tartibiga rioya qilinadi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi.

7.18. Viktorinada ishtirok etish Viktorinani otkazish davrida va u yakunlangandan so'ng shu Viktorinaga taalluqli shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlaniishi, SMS-xabarlar olish, Tashkilotchi tomonidan reklama va xabarlar tayyorlashga Ishtirokchining qarshi emasligini bildiradi.

7.19. Viktorinaning barcha Ishtirokchilari Viktorinada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlar (shu jumladan, cheklanmagan holda Internetga kirish va mobil aloqa bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, transport xarajatlari)ni mustaqil ravishda to'laydi.

7.20. Tashkilotchi www.finmedia.uz rasmiy saytida, yoki <https://t.me/qumsoat> rasmiy Telegram kanalida Viktorina haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirish huquqini saqlab qoladi.

7.21. Tashkilotchi o'z ixtiyori bilan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik tartiblari va mazkur Qoidalarga binoan mazkur Qoidalarni buzayotgan, destruktiv tarzda ish ko'rayotgan yoki mazkur Viktorinaga taalluqli bo'lgan boshqa shaxslarni ranjitish, xaqoratlash, tahdid qilish yoki tinchini buzish maqsadida xatti-harakat qilayotgan har qanday shaxslarning barcha taqdimnomalarini bekor qilishi, shuningdek, mazkur Viktorinada ishtirok etishini taqiqlashi mumkin.

7.22. Tashkilotchi Viktorinada tovlamachilikka to'sqinlik qiluvchi qo'shimcha texnik cheklovlarni istalgan vaqtda kiritish huquqini saqlab qoladi. Biror-bir Viktorina Ishtirokchisi tomonidan adolatsizlikka har qanday urinish kuzatilgan taqdirda, u Viktorinada ishtirok etishdan chetlashtirilishi mumkin. Tashkilotchi o'zidagi mavjud texnik imkoniyatlarga hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchilik tartiblariga va mazkur Qoidalarga asoslangan holda Viktorinada adolatsiz ishtirok etishni baholashni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

7.23. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilmagan boshqa holatlarda Tashkilotchi va Viktorina Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga tayanadi.

7.24. Tashkilotchi www.finmedia.uz rasmiy saytida e'lon qilish sharti bilan mazkur qoidalarga o'zgartirish kiritish huquqini saqlab qoladi.

8185 va 08185 QISQA RAQAMLARIGA SO'ROVNOMANI AMALGA OSHIRISH ORQALI FOYDALANUVCHI VIKTORINANING MAZKUR QOIDALARI VA TALABLARIGA ROZILIGINI TASDIQLAYDI.

Tashkilotchining rekvizitlari:

“PRIME MEDIA SOLUTION” MChJ
Yuridik manzili: 100000, Toshkent sh., Mustaqillik ko'chasi, 59A
Telefon: +99871 237-4529
h/r 20208000200604762001
OPERB ATB «InFinBank» MFO 01041
STIR 303876560 IFUT 63110